

**Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash
bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

2026-yil 1-yanvar holatiga

Suv xo‘jaligi sohasida ijro intizomiga qat’iy rioya etilishini ta’minlash yuzasidan mustahkam tizim yaratish, tartib o‘rnatish, temir intizomni joyiga qo‘yish, rahbarlar va xodimlarning dunyoqarashini o‘zgartirish – soha xodimlarining eng muhim hamda asosiy faoliyat mezonlaridir.

“Ijro.gov.uz” tizimidagi Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “texnologik zanjir” asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

2025-yilning dekabr oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarini 25-dekabrga qadar ijrosini ta’minlashga qaratilgan I–II kartoteka topshiriqlar ro‘yxati, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqilib, ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 058 ta topshiriq nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan, 121 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan va 3 ta topshiriqni nazoratdan olish va muddatini uzaytirish yuzasidan Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan bo‘lib, Vazirlar Mahkamasi Rayosatining joriy yilning yanvar oyidagi majlisida ko‘rib chiqiladi.

Administratsiya rahbarining 88 ta topshirig‘i nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan 9 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 512 ta topshirig‘i nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan, 66 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan.

2025-yilning dekabr oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan Administratsiya rahbarining 29 ta topshirig‘i, Vazirlar Mahkamasining 72 ta topshirig‘i (100%) to‘liq bajarilgan va o‘rnatilgan tartibda nazoratdan chiqarilgan.

562 ta Prezident topshiriqlarining 559 tasi bajarilgan hamda 3 tasi bajarilmagan. Bugungi kunda, ushbu topshiriqni nazoratdan olish va muddatini uzaytirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi rayosatiga taklif kiritilgan.

Shuningdek, 2026-yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 98 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan 65 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 33 tasida ham ijrochi.

Administratsiya rahbarining 21 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan 18 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 3 tasida ham ijrochi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 42 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 29 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 13 tasida ham ijrochi hisoblanadi.

Topshiriqlar ijrosini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar har hafta vazirlik markaziy apparati yig‘ilishlari hamda har oy yakuni bilan hay‘at yig‘ilishida tanqidiy tahlil qilib borilmoqda.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo‘limi